


Axatov L.K.

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI



**Toshkent
2025**

130.2

A-16

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Axatov L.K.

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI

Uslubiy qo'llanma

2
3
4
9
9
3

-14403/11-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

Toshkent
«TGN PRINT»
2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO*K 130.2;004.9
KBK 87.817;32.973.2
A-16

Axatov L.K. MEDIASAVODXONLIK VA
AXBOROT MADANIYATI. Uslubiy qo'llanma. – T.: "TGN
PRINT", 2025. 206 b.

Mazkur uslubiy qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrasining "Axloq va barqaror
taraqqiyot falsafasi: Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson
omili va individual ta'lim" nomli tadqiqot ishlari doirasida tayyorlangan
bo'lib, bakalavriatning barcha yo'nalishlari bo'yicha talabalarning kasbiy
kompetentligini rivojlantirish yo'llariga bag'ishlangan.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib
borilayotgan qator oliy o'quv yurtlarida "Mediasavodxonlik va axborot
madaniyati" o'quv rejasiga kiritilgan. Ushbu fanini chuqur o'rganishga
mo'ljallangan bo'lib, undan barcha talabalar, professor-o'qituvchilar,
tadqiqotchilar hamda soha mutaxassislari o'z faoliyatida foydalanishlari
mumkin.

Taqrizchilar:

T.A.Madalimov - F.f.n., dotsent (CHDPU).

Sh.X.Tog'ayev - F.f.n., dotsent (CHDPU).

Uslubiy qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti Uslubiy
kengashining 2025-yil 23 yanvardagi 6-sonli buyrug'iga asosan nashrga
tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6370-5-4

MUNDARIJA

KIRISH	4
1-Mavzu: Mediasavodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi	6
2-Mavzu: Axborotning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	24
3-Mavzu: Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanishi	45
4-Mavzu: Jahon media va axborot makonida raqobat	62
5-Mavzu: Chet el ommaviy axborot vositalarining media makonidagi o'rni	78
6-Mavzu: Media maydon tuzilishi	95
7- Mavzu: Ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlari	112
8- Mavzu: Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotiy tahdidlar	133
9-Mavzu: Media maydonda axborot tarqatish madaniyati	154
10-Mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan axborot ta'sirlari: psixologik, e'tiqodiy va madaniy tahdidlar	169
Glossariy	189
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	203

KIRISH

Ma'lumki, media savodxonlik-insonlarga turli media shakllarini, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plami sifatida baholanadi. Media savodxonlik — jamiyatdagi turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plami sanaladi. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi.

Bugungi OAV yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuch deb baholanadi. San'at-musika, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanishi barchaga ma'lum. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi.

Axborot madaniyati tushunchasi mazmun va mohiyati. Axborot olish va foydalanish metodlari. O'zbekiston jahon axborot makoniga shiddat bilan integrasiyalashmoqda. Mamlakat fuqarolari bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan ma'lumot va axborotlarni cheksiz ravishda olish imkoniyatiga ega. Biz oladigan va foydalanadigan axborotning sifati bizning hayotiy tanlovimizga, ijtimoiy-siyosiy faoliyatimizga katta ta'sir ko'rsatadi.

1997-yil 24-apreldagi "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida", 2014 yil 5 may kuni respublikamizda "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni, 28.06.2022-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy

axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 22.08.2022 yil "2022-2023-yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-357-sonli qarorlari qabul qilindi. Mazkur qonun milliy axborot makonining yanada shaffof bo'lishiga, uning kengayishiga hamda global axborot makonida O'zbekiston imijining, milliy kontent mazmuni, shakli va usullarining boyishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Media va boshqa axborot xizmatlari (kutubxonalar, arxivlar va Internet) butun dunyoda mavjud axborotning to'laligidan kelib chiqqan holda insonlarga qaror qabul qilishga ko'mak beradi. Bundan tashqari, ular jamiyat o'zi haqidagi haqiqatni bilishi, aholi bilan bo'ladigan muloqotni qo'llab-quvvatlovchi va shu orqali u bilan birlashgan holda maqsad sari borishi mumkin bo'lgan vositadir. MAS insonning raqamlashtirilgan axborot va raqamli texnologiyalar olamidagi, barcha xalqlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ko'mak beruvchi olamdagi bazaviy huquqi hamdir.

Bugun mediatizasiya hayotimizga chuqur va tezkor kirib borayotgan, ma'lumotlar hajmi tobora ortib borayotgan yangi global davrga kirib borishimiz jarayonida insonning ishonchli axborotga nisbatan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Axborot makonining globallasuvi, ochiqligi va ommaviy kommunikasiyaning kuchayishi natijasida axborotlar inson ongu shuuriga shiddat bilan oqib kelmoqda.

Axborot asrida ommaviy axborot vositalari soni kundan kunga oshib bormoqda. Axborotga bo'lgan talabning yuqoriligi, nafaqat uni uzatish vositalari, turlariga, balki axborotning asosiy vazifasi, mazmun-mohiyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti.

1-Mavzu: MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI EVOLYUTSIYASI

Reja:

- 1.1. Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining shakllanish bosqichlari.
- 1.2. Muloqot va ma'lumot tushunchasining uzviyligi.
- 1.3. Muloqot va ma'lumotning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati.
- 1.4. Media savodxonlik va axborot madaniyatining kommunikativligi.

Tayanch iboralar: Inson, evolyutsiya, ibtido, til, yozuv, muloqot turlari, munosabat, adabiy tafakkur, dunyoqarash, siyoh, maqol, topishmoq, ong, zamon va makon, insoniyat, jamiyat, muloqot, fikr almashish, she'r, kitob.

1.1. Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining shakllanish bosqichlari.

Tabiat va jamiyatdagi har bir evolyutsion jarayon insoniyat tarixining muhim qismi sifatida insoniyatni o'zi haqidagi tarixiy haqiqatni topishga yaqinlashtiradi. Shu ma'noda yaratilish tarixi, hayvonot olami va o'simlik dunyosining o'zaro bog'liqligidan dunyoning yaratilishi bilan bog'liq muhim yangilikni tadqiq qiladi.

Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining hayotimizga chuqur kirib borishi tufayli axborot hajmi ham oshdi va bunday global jarayonda ommaviy demokratik muloqotning eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Muloqotning bu turi inson huquqlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Binobarin, dunyodagi barcha voqea va hodisalar u yoki bu tarixiy manbaga o'ziga xos tarzda oydinlik kiritishi va ayni paytda muhim tarixiy ma'lumotlarning ochilishi uchun sabab bo'lishi mumkin. O'tmish tarixi, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'rganishda falsafa, madaniyatshunoslik, etnologiya, etnografiya,

san'atshunoslik, sotsiologiya va boshqa shu kabi fanlar etakchilik qilmoqda. Biroq, mohiyatiga ko'ra, bu fan tarixining muhim tarkibiy qismidir. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, ibt idoiy odam o'z fikrini o'zi o'ylab topgan turli belgilar va tasvirlar yordamida ifodalashga harakat qilganligini bilib olamiz. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan til, yozuv va muloqot shakli shu tarzda paydo bo'lgan degan argument bor. Agar biz tilning tarixi va evolyutsiyasi haqida fikr yuritmoqchi bo'lsak, uni ilmiy jihatdan o'rganishimiz kerak.

Jahon tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, ayniqsa, g'orlar devorlariga turli tasvirlarni yozish paleolit davriga to'g'ri keladi, O'rta Osiyodagi g'or va qoyalarga chizilgan rasmlar esa mezolit davriga mansub. O'rta Osiyoning tog'li hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlov berish usuliga ko'ra ikki turga bo'linadi. Ularning ba'zilar bo'yoq (oxra) bilan chizilgan rasmlar (petrogliflar), ikkinchi turi o'yilgan va ishqalangan.

Biroq til, nutq, yozuv va uning muhim elementlari inson evolyutsiyasida ahamiyat kasb etish bilan birga millionlab yillar davomida shakllangan va shakllanmoqda. Til jamiyat boyligi bo'lib, u jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma'naviy hayotida sodir bo'layotgan barcha hodisalar haqida bilimlarni to'playdi, ular haqida hisobot beradi.

Til - belgilar tizimi va ularni bog'lash usullari, u fikr, his-tuyg'u va irodani ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiluvchi muloqot vositasidir.

Til yordamida biz dunyoni o'rganamiz, undagi o'rnimizni aniqlaymiz. Ob'ektlar yoki hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qiluvchi va qayta ishlaydigan odamlar endi ular bilan emas, balki ularning belgilari, tushunchalarning belgilari bilan til yordamida ishlaydi.

Milliy til mavjudligining quyidagi shakllari ajratiladi:

Xalq tili - so'zlashuv nutqining lingvistik vositalari majmui adabiy til me'yorlarini buzadi. Xalq tiliga fikrning qo'pol, qisqartirilgan ifodasi uchun ishlatiladigan til hodisalari (so'zlar,